



XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko`chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 12 - iyul

VI-63-130-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

Xalq deputatlari Angor tumani Kengashining Reglamentiga o‘zgartish va qo‘srimcha kiritish to‘g‘risida

Xalq deputatlari tumani Kengashi deputatlarini daxlsizlik huquqidan mahrum etish bo‘yicha kiritilgan taqdimnomalarni ko‘rib chiqish tartibini takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 24-moddasiga hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2023-yil 29-maydagi KQ-510-IV-son qaroriga asosan xalq deputatlari Angor tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari tumani Kengashining 2021-yil 23-avgustdagи “Xalq deputatlari Angor tumani Kengashining Reglamenti va doimiy komissiyalar to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-34-41-8-109-K/21-sonli qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan Xalq deputatlari Angor tumani Kengashining Reglamentiga ilovaga muvofiq o‘zgartish va qo‘srimcha kiritilsin.
2. Xalq deputatlari tumani Kengashi kotibiyati mudiri (M.Yarmatov) xalq deputatlari tumani Kengashi faoliyatini Reglament asosida olib borilishini ta’minlasin.
3. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tumani Kengashi raisi o‘rinbosari (I.Baxromov) zimmasiga yuklatilsin.
4. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



Q.Mardonov

Xalq deputatlari Angor tuman
Kengashining
2023-yil 12-iyuldag'i
VI-63-130-8-109-K/23-son
qaroriga
1-ilova

Xalq deputatlari Angor tumani Kengashining reglamentiga kiritilayotgan o'zgartish va qo'shimcha

Xalq deputatlari tuman Kengashining 2021-yil 23-avgustdag'i VI-34-41-8-109-K/21-sonli qarori bilan tasdiqlangan Xalq deputatlari Angor tumani Kengashining Reglamenti Nizomiga quyidagi o'zgartirish va qo'shimcha kiritilsin:

1. **90-modda** chiqarib tashlansin;
2. quyidagi mazmundagi **XI¹** bob bilan to'ldirilsin:

"XI¹ bob Deputatni daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga rozilik olish to'g'risida kiritilgan taqdimnomani ko'rib chiqish

91¹-modda. Deputatni daxlsizlik huquqidan mahrum qilish to'g'risidagi masala tegishli hudud prokurorining yoki yuqori turuvchi prokurorning taqdimnomasiga binoan tuman Kengashi tomonidan o'n kun ichida hal yetiladi.

Senator yetib saylangan deputatni daxlsizlik huquqidan mahrum qilish masalasi "O'zbekiston Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a'zosining maqomi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida belgilangan tartibda hal yetiladi.

91²-modda. Deputatni javobgarlikka tortishga rozilik olish to'g'risida quyiprokuror tomonidan kiritilgan taqdimnomani yuqori turuvchi prokuror chaqirtirib olishi mumkin.

91³-modda. Deputatni jinoiy javobgarlikka tortishga, ushlab turishga, qamoqqa olishga yoki unga nisbatan sud tartibida beriladigan ma'muriy jazoni qo'llashga rozilik olish to'g'risidagi prokuror taqdimnomasi tuman Kengashiga kelib tushgandan keyin tuman Kengashi kotibiyati tomonidan rasmiylashtiriladi va shu kunning o'zida tuman Kengashi raisiga hamda Reglament va deputatlik odobi masalalari bo'yicha doimiy komissiya raisiga taqdim yetiladi.

91⁴-modda. Taqdimnomalar Reglament va deputatlik odobi masalalari bo'yicha doimiy komissiyaga kelib tushgandan keyin ikki kun ichida komissiya majlisida muhokama qilinadi.

Muhokama jarayonida daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga rozilik so'ralgan deputatning o'zi ham ishtirok yetadi.

91⁵-modda. Reglament va deputatlik odobi masalalari bo'yicha doimiy komissiya majlisida taqdimnomani muhokama qilish yakunlari bayonnomma shaklida rasmiylashtiriladi.

Bayonnomada majlis bo'lib o'tgan sana, vaqt, joy, komissiya a'zolarining va daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga rozilik so'ralgan deputatning ishtiroki, raislik qiluvchi, prokuratura vakilining familiyasi, ismi, lavozimi, muhokama jarayonida bildirilgan fikr-mulohazalar, mazmuni va ovoz berish natijalari batafsil yoritiladi.

Bayonnomada Reglament va deputatlik odobi masalalari bo'yicha doimiy komissiyaning deputatni daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga rozilik berish yoki rad yetish bo'yicha xulosasi aks yettililadi hamda ushbu masalani tuman Kengashi sessiyasi muhokamasiga kiritish nazarda tutiladi.

91⁶-modda. Tuman Kengashi kotibiyati taqdimnomani rasmiylashtirgandan keyin uni ko'rib chiqish bo'yicha kelgusi o'n kun ichida o'tkaziladigan sessiya kun tartibiga kiritish yuzasidan tuman Kengashi raisiga taklif kiritadi.

Agar navbatdagi sessiya yaqin uch kun ichida o'tkazilishi belgilangan va bu sessiya Reglament va deputatlik odobi masalalari bo'yicha doimiy komissiyaning majlisi o'tkaziladigan kundan oldin bo'lsa yoki yaqin o'n kun ichida sessiya o'tkazilishi rejalashtirilmagan bo'lsa taqdimnomani muhokama qilish bo'yicha navbatdan tashqari sessiya chaqiriladi. Bunda sessiyani chaqirish bo'yicha qonunchilikda belgilangan talablarga rioya yetilishi shart.

91⁷-modda. Tuman Kengash sessiyasida daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga rozilik so'ralgan deputatning o'zi ham ishtirok yetadi, taqdimnomani prokuratura vakili ishtirokida muhokama qilinadi.

Tuman Kengashi sessiyasida taqdimnomani ko'rib chiqish masalasi muhokama qilinayotganda daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga rozilik so'ralgan deputatning raislik qilishi mumkin yemas.

Muhokama yakunlari bo'yicha deputatni daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga rozilik berish yoki rad yetish bo'yicha ovoz berish jarayoni o'tkaziladi. Sessiyada ishtirok yetayotgan deputatlarning taklifiga asosan ovoz berish yopiq shaklda o'tkazilishi ham mumkin.

91⁸-modda. Tuman Kengashi sessiyasida deputatni daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga rozilik olish bo'yicha taqdimnomani ko'rib chiqish jarayoni daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga rozilik so'ralgan deputatning roziligi bilan sessiya ochiq yoki yopiq shaklda o'tkazilishidan qat'iy nazar videotasvirga olinadi hamda videomateriallar tuman Kengash kotibiyatida saqlanadi.

91⁹-modda. Tuman Kengashning deputatni daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga rozilik berish yoki rad yetish masalasiga doir qarori rasmiylashtirgandan

keyin darhol tegishli prokurorga yuboriladi.

91¹⁰-modda. Deputatni daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga rozilik olgan prokuror ish yuritish tamomlangan kundan e'tiboran uch kunlik muddat ichida tuman Kengashga ishni tergov qilish, sudda ko'rib chiqish natijalari to'g'risida xabar qilishi shart.

Tuman Kengashning deputatni daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga rozilik berishni rad yetgani unga nisbatan jinoyat ishi yuritilishini yoki sud tartibida beriladigan ma'muriy jazoni nazarda tutadigan ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ish yuritilishini istisno yetadigan va bunday ishlarni tugatishga olib keladigan holat hisoblanadi".